AVTOMOBIL SANOATI RAQOBATBARDOSHLIGINI TO‘G‘RIDAN TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ASOSIDA OSHIRISH YO‘LLARI

Nasritdinova Gulchexra Abdurashitovna
PhD, tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish asosida sanoat raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-nazariy jihatlari o‘rganilgan. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) mamlakat sanoatiga jalb etish orqali raqobatbardoshligini oshirishning asosiy determinantlari aniqlangan. O‘zbekiston avtomobil sanoatiga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalarni sanoat raqobatbardoshligiga ta’sirini o‘rganish uchun model taklif etilgan. O‘zbekistonning avtomobil sanoatiga yo‘naltirilgan TTXIlarni jalb etishning tarmoq raqobatbardoshligiga ta’siri aniqlanib, raqobatdosh ustunliklarni ta’minlash uchun maqsadli strategiyalar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, avtomobil sanoati, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, strategiya.

Аннотация. В данной статье исследованы научно-теоретические аспекты повышения конкурентоспособности отрасли на основе привлечения прямых иностранных инвестиций. Определены основные детерминанты повышения конкурентоспособности промышленности страны за счет привлечения прямых иностранных инвестиций (ПИИ). Предложена модель исследования влияния иностранных инвестиций, направленных в автомобильную промышленность Узбекистана, на конкурентоспособность промышленности. Определено влияние привлечения ТТХИ, ориентированных на автомобильную промышленность Узбекистана, на конкурентоспособность отрасли и предложены целевые стратегии обеспечения конкурентных преимуществ.

Ключевые слова: инвестиции, автомобильная промышленность, производство промышленной продукции, прямые иностранные инвестиции, стратегия.

Abstract. This article studies the scientific and theoretical aspects of increasing the competitiveness of the industry based on the attraction of foreign direct investments. The main determinants of increasing the competitiveness of the country’s industry by attracting foreign direct investment (FDI) have been identified. A model is proposed to study the impact of foreign investments directed to the automobile industry of Uzbekistan on industrial competitiveness. The influence of the involvement of TTXIs focused on the automobile industry of Uzbekistan on the competitiveness of the industry is determined, and targeted strategies are proposed to ensure competitive advantages.

Keywords: investment, automobile industry, production of industrial products,

foreign direct investments, strategy.

KIRISH

O‘zbekistonda mustaqil taraqqiyot davrida qulay investitsion muhit yaratish, iqtisodiyotga yo‘naltirilgan sarmoyani ko‘paytirish, investitsion faoliyat jozibadorligini oshirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Avtomobil sanoatida investitsiyaga bo‘lgan talabning rag‘batlantirilishi, investitsiya resurs bazasining kengayishi, qulay investitsion muhitning yaratilishi natijasida avtomobil tarmog‘iga 2016-2021-yillarda qariyb 391,6 mlrd. so‘mlik investitsiya jalb qilingan. Biroq investitsiyalarni jalb etish borasida hali yetarli darajada foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjud. Shuningdek, jalb etilgan TTXIlardan nafaqat samarali foydalanish va ularni mahalliylashtirish, balki xorijiy investorlarni ham o‘ziga jalb eta oladigan shart-sharoitlar yaratishga ustuvor e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Avtomobil sanoatida kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko‘paytirish va mahalliylashtirish darajasini oshirish” zarurati alohida vazifa sifatida belgilangan[1]. Ushbu holatlarni inobatga olganda O‘zbekiston avtomobil sanoatidagi mavjud investitsion salohiyat va imkoniyatni safarbar etishning ta’sirchan mexanizmlarini shakllantirishning ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish, investitsion salohiyatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga yuqori ahamiyat qaratish talab etilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tushunchasini talqin qilishda ham bir qator qiyinchiliklar tug‘diradi. Ko‘plab tadqiqotlar va statistik axborotnomalarda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar xorijiy korxonaning mulkini sotib olishni yoki xorijdan kapitalni jalb etishni nazarda tutadi[2]. Xorijiy investitsiya — chet el investorlari tomonidan foyda olish maqsadida boshqa bir davlat iqtisodiyotning qonun bilan taqiqlanmagan tadbirkorlik va boshqa faoliyatiga tavakkalchilik asosida safarbar etiladigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir[3]. Yangi ish o‘rinlari yaratish, eksport hajmini oshirish, innovatsiyalarni mamlakatda tarqalishi va boshqalar bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. R.Prebisha[4] tomonidan ilgari surilgan “tashqi qaramlik nazariyasi” e’tiborga molik nazariyadan biri hisoblanadi va rus olimlaridan V.K.Zaxarov, I.Golikova[5] to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, asosan, investorlarning boshqa mamlakatlarga eskirgan kapitalini tashqariga musodara qilish” mazmunida ifodalaydi. Shuningdek, iqtisodiyotni qaram rivojlantirish muammolariga olimlar tomonidan jiddiy qarash holatlari mavjud[6]. Biroq, globallashuv jahon iqtisodiyotining rivojlanishining tabiiy jarayoni sifatida qarashlar ham ilgari surilmoqda[7]. Mualliflar qarashlariga ko‘ra, globallashuv jahon miqyosidagi rivojlanishining ajralmas qismi sifatida qarashini taklif qiladi va so‘nggi paytlarda jahon iqtisodiyotida paydo bo‘lgan globallashish to‘lqini ham iqtisodiy tizimlarning yanada kengroq integratsiyalashuvi uchun umumiy jarayonning bir qismi sifatida namoyon bo‘layotganligini asoslaydi.

J.Bxagvati[8] tomonidan xorijiy investitsiyalarning barcha ijobiy jihatlarini tavsiflab, ularni mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan.

Xorijiy tadqiqotchilar fikricha, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishni ta’minlovchi moliyalashtirish manbasi bo‘lish bilan birga bilvosita ta’sirlar (spillover effect) shaklida mamlakatga zamonaviy texnika va texnologiya, innovatsiya, nou-xau hamda boshqaruv usullarini jalb qilishga yordam beradi [9].

O‘zbekiston olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotning rivojlanishiga ta’sirini baholash bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. B.Valiyev tomonidan O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalar samaradorligiga investitsiya multiplikatori, kapital qaytimi va sig‘imi, ICOR hamda akselerator koeffitsiyentlarini hisoblash orqali baho berilgan bo‘lib, unda iqtisodiyot va xorijiy investitsiyalarning o‘sishi o‘rtasida o‘zaro kuchli bog‘liqlik kuzatilmagan[9].

Z. Gaibnazarova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xorijiy davlatlar va xususiy investorlarning innovatsion investitsiyalarni jalb etishning ijobiy va salbiy tomonlari keng yoritilgan[10]. O‘zbekistonning hududlarida turli xildagi Erkin iqtisodiy hududlarni (EIH) tashkil etilishi orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirishga, ikkinchidan, mamlakat va uning hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yuksalishiga olib kelishi M. Raimjanovaning[11] tadqiqotlarida asosiy gipoteza sifatida qo‘yilgan hamda asoslangan.

TTXI mezbon mamlakatlar uchun sanoat salohiyatini oshirishdagi asosiy kanal hisoblanadi [12]. To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar sarmoya, texnologiya, nou-xau, bilim va ko‘nikmalar, tovar nomlari, tashkiliy va boshqaruv amaliyotlar, bozorlarga kirish, raqobatli bosim va ekologik toza texnologiyalarni o‘z ichiga olgan moddiy va nomoddiy aktivlar hisoblanadi[13]. Keltirib o‘tilgan vositalar TTXI uni qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligi oshirishga va raqobat afzalliklarni ta’minlashga qo‘yidagi vositalar orqali yordam beradi:

Yangi mahsulotlar, yangi jarayonlarni va yangi amaliyotlarni olib qirishga. TTXIlar jalb qiluvchi korxonalar o‘zining yangi texnologiyalarini olib qirish orqali mamlakat sanoatini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘zaro munosabatlarni rivojlanishi. TMKlar sanoatga yangi texnologiyalarni olib qirish orqali ikki mamlakat ishbilarmonlari o‘rtasida samarali bozor munosabatini o‘rnatadi va boshqa sanoat tarmoqlarini rivojlanishiga hamda xorijiy bozorlar bilan aloqasini ta’minlashga yordam berib, sanoat salohiyatini oshirishga yordam beradi.[14]

Innovatsion imkoniyatlarni yaratish. TMKlar tomonidan tashkil etiladigan korxonalar innovatsiyalarni o‘zlarining bosh ofislarida amalga oshirsalar-da, texnologik innovatsiyalarni deyarli qabul qiluvchi mamlakatlarda sinaladi. Ushbu jarayonlar o‘z navbatida sanoat tarmoqlarida innovatsiyalarni sochilib ketishini yuzaga chiqaradi.

Moslashuvchanlik va raqobatbardoshlik. Mahalliy korxonalar (ko‘proq xorijiy korxonalarning raqobatchilar) transmilliy kompaniyalarning uchun texnologiyalarini o‘rganish yoki benchmarking asosida ishlab chiqarish usullarini yangilashlari kuzatilib, o‘zlarining raqobatda ustunliklarini yaratishga intilish kuchayadi.

Kasb-mehnat va migratsiya. TTXI ishtirokidagi korxonalarda faoliyat yuritgan ishchi xodimlar, menejer va marketologlar o‘z bilim va ko‘nikmalarini mahalliy korxonalarga kiritishga, tajribalar almashishga hamda istiqbolda o‘zlari mustaqil faoliyat yurituvchi korxonalar ochishga harakat qilish kuchayadi.

TTXIlarni sanoat raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyatni yanada aniqroq anglash uchun empirik tadqiqotlar yetarli darajada asoslanmaganligini e’tiborga olib, maqsadli tahlillarni amalga oshirish lozim. Raqobatbardoshlik determinantlari bo‘yicha esa bir qator o‘ziga xosliklarni ko‘rib chiqish mumkin. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, TTXIlar rolini e’tiborga olgan holda sanoat raqobatbardoshligini oshirishga bog‘liqligini aniqlash uchun raqobatbardoshlik determinantlari hamda TTXIlarning o‘zaro mutanosiblashtirilgan modelini yaratish talab qilinadi.

METODOLOGIYA

Yuqoridagilarni e’tiborga olgan holda qayd etish mumkinki, TTXIlarni kiritish orqali sanoat raqobatbardoshligini oshirishning asosiy determinantlari sifatida quyidagi funksiyani qabul qilish mumkin:

$$CP_{it} = f(TTXИ_{it}, \beta X) \qquad (1.1)$$

bunda,

CP_{it} – ma’lum sanoat tarmog‘i (i) ning t davrdagi raqobatbardoshlik salohiyati;

$TTXI_{it}$ – ma’lum sanoat tarmog‘i(i)ga t davrda kiritilgan TTXIlar hajmi;

βX- sanoatning raqobatbardoshlik determinantlari hisoblanib, quyidagi omillarni o‘z ichiga olishi mumkin: inson kapitali (HK), ilmiy tadqiqotlarni rivojlanishi (RD), infratuzilma (INFR) va boshqalar.

Taklif etilayotgan har bir o‘zgaruvchilarning mantiqiyligi tahlil etish maqsadga muvofiq.[15][16][17] [18]

Ilmiy tadqiqot rivojlanishiga (RD) xarajatlarni oshirib borish ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatni rivojlantirishning hal qiluvchi omillaridan biri bo‘lgan texnologik harakatchanlikni anglatadi. Ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishi mamlakatning sanoat tuzilmasi rivojlanishi va korxonalarning ilg‘or texnologiyalarni qo‘llashi bilan ko‘proq ahamiyat kasb etadi.

Infratuzilma (INFR) ishlab chiqarishning mavjud quvvatlari va texnologiyalarining jismoniy holati bilan bog‘liq bo‘lib, ularning sifati sanoat raqobatbardoshligining asosiy determinanti hisoblanadi. Shuningdek, sanoatning eksport salohiyati va imkoniyatlarini belgilab beruvchi logistika tizim, energetika va h.k.larni sanoatning eksportini oshirish orqali raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Yuqoridagi model (1) bo‘yicha O‘zbekiston avtomobil sanoatiga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalarni sanoat raqobatbardoshligiga ta’sirini o‘rganish uchun avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarga nisbatan qo‘llash asosida taqqoslash mumkin. Shuning uchun soxta o‘zgaruvchi (D) kiritiladi. Kiritilgan soxta o‘zgaruvchi bo‘yicha avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlar agarda tanlangan omillar ijobiy o‘zgarsa bir qiymatni va salbiy o‘zgarsa, nol qiymatlarni qabul qiladi. Shuningdek modelga kuzatilmaydigan vaqt ta’sirini ($ή_t$) ham kiritish maqsadli bo‘lib, vaqt davomida ko‘zda tutilgan boshqa omillar ta’sirini pasaytirishga imkoniyat beradi. Modelga ozod had va

stoxastik komponentni kiritgan holda quyidagicha tuzamiz:

$$CP_{it} = \alpha_0 + \alpha_1 HK_{it} + \alpha_2 RD_{it} + \alpha_3 INFR_{it} + \alpha_4 D_{it} + \alpha_5 TTXI_{it} + \eta_t + \varepsilon_{it} \quad (1.2)$$

Inson kapitali va TTXIlar o‘zaro bir birini to‘ldiruvchi bo‘lganligi sababli tuzilgan (2) modelni qo‘shimcha komponent sifatida inson kapitali va TTXIlarning ko‘paytmasini doimiy musbat qiymat qabul qilish sharti bilan kiritamiz va modelni quyidagicha ifodalaymiz:

$$CP_{it} = \alpha_0 + \alpha_1 HK_{it} + \alpha_2 RD_{it} + \alpha_3 INFR_{it} + \alpha_4 D_{it} + \alpha_5 TTXI_{it} + \\ + \alpha_6 (HK_{it} * TTXI_{it}) + \eta_t + \varepsilon_{it} \quad (1.3)$$

Ushbu model O‘zbekiston avtomobil sanoatiga jalb qilingan TTXIlarni boshqa mamlakatlarning aynan shu tarmog‘iga jalb etilgan TTXIlarga nisbatan raqobatbardoshlikni qay darajada oshirishga xizmat qilganligini nisbiy taqqoslash imkoniyatini beradi va model faqat TTXIlarning raqobatbardoshlikka ta’sirini aniqlash uchungina ishlatilishini nazarda tutish lozim. Boshqa ko‘plab omillarni modelga kiritish mumkin, biroq maqsadimiz TTXIlarni raqobatbardoshlikni oshirishga ta’sirini o‘rganishdangina iboratligini tushunish muhimdir.

Keltirilgan (3) modelni sinab ko‘rish uchun jahon avtomobil sanoatidagi umumiy o‘zgarishga nisbatan O‘zbekiston avtomobil sanoatining holati bo‘yicha 2010-2018-yillardagi ma’lumotlaridan foydalanib taqqoslash imkoniyati mavjud. Shunga ko‘ra modelni quyidagicha tuzamiz:

$$\Delta CP_{it} = \beta_0 + \beta_1 \Delta HK_{it} + \beta_2 \Delta RD_{it} + \beta_3 \Delta INFR_{it} + \\ + \beta_4 \Delta D_{it} + \beta_5 \Delta TTXI_{it} + \beta_6 \Delta (HK_{it} * TTXI_{it}) + \gamma_t + \mu_{it} \quad (1.4)$$

TAHLIL VA NATIJALAR

Modelni asoslovchi ma’lumotlar to‘plami quyidagicha shakllantiriladi:

- inson kapitali (HK) mamlakatlarda avtomobil sanoatida texnik xodimlarni tayyorlash darajasini jami aholi soniga nisbati yoki avtomobil sanoatida band aholining jami sanoatda band aholiga nisbatan ulushi kabi ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi.

- ilmiy tadqiqot rivojlanishiga (RD) xarajatlarni mamlakatlarda innovatsiyalarga qilingan xarajatlar yoki ushbu sohada olingan patentlar miqdori bilan belgilanadi.

- infratuzilma (INFR) xalqaro darajada asosan uchta standartlashtirilgan indikatorlar yordamida aniqlash tavsiya etiladi:

mamlakat hududining 100 km^2 ga to‘g‘ri keluvchi temir yo‘llar uzunligi;

100 km^2 ga to‘g‘ri keluvchi avtomobil yo‘llarining uzunligi;

Statistik ma’lumotlar YUNKTAD, YUNIDO, JST, IHTT, Xalqaro avtomobil ishlab chiqaruvchilar tashkiloti (OICA-International Organization of Motor Vehicle Manufacturers), Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida yig‘ilgan (1-jadval).[1]

[1] Trade and Development Report 2017: UNCTAD, 2010; UNCTAD, 2017; Industrial Development Report 2018: Demand for Manufacturing: Driving Inclusive and Sustainable Industrial Development, UNIDO, 2017; Inserting Local Industries into Global Value Chains and Global Production Networks: UNIDO, 2011; Fung Global Institute (FGI), World Trade Organization (WTO), 2017; WTO/OECD Joint Publication;

1-jadval

O‘zbekiston avtomobil sanoatini rivojlanish ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	belgi	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021
Jahon avtomobil eksporti (TNVED 8701-8703 bo‘yicha), mln.AQSH dollari*	EX_w	712323,0	478358,4	570746,4	707028,6	721616,2	750089,5	726901,6	745957,9	760085,3	816363,5	851740,5	797391,7
O‘zbekiston avtomobil eksport (TNVED 8701-8703 bo‘yicha), mln. AQSH dollari*	EX_{uz}	451,2	562,2	488,3	697,8	717,1	660,6	459,1	51,9	30,1	136,3	49,7	297,528
Jahon eksportida O‘zbekiston ulushi, %	CP_1	0,0633	0,1175	0,0856	0,0987	0,0994	0,0881	0,0632	0,0070	0,0040	0,0167	0,0058	0,000373
Jahonda avtomobil ishlab chiqarish, ming dona**	ICH_w	70729,7	61762,3	77583,5	79880,9	79880,9	87310,8	89734,2	90954,9	95272,8	96746,8	95706,3	80146,0
O‘zbekistonda avtomobil ishlab chiqarish, ming dona**	ICH_{uz}	208,0	117,9	156,9	117,7	179,6	246,6	245,7	185,4	88,2	140,2	220,7	241,6
O‘zbekistonning avtomobil ishlab chiqarish bo‘yicha jahon bozoridagi ulushi, %	CP_2	0,29	0,19	0,20	0,15	0,22	0,28	0,27	0,20	0,09	0,14	0,23	0,01
Avtomobil sanoatida bandlar, ming kishi***	HK	16,1	17,0	18,2	19,4	22,2	24,1	26,2	26,2	24,1	24,8	25,3	26,4
Berilgan patentlar soni, birlik****	RD1	4,0	9,0	7	9	11	11	13	4	3	19	10	8
Amalga oshirilgan innovatsiyalar, birlik****	RD2	24	22	24	30	28	70	88	88	98	99	87	74
Xorijiy investitsiya va kreditlar, mln.AQSH dollari***	TTXI	1,1	2,77	98,01	16,56	39,51	12,83	0,69	30,51	28,76	140,05	25,60	167,8

Manba: *https://www.trademap.org/tradestat/ — Jahon savdo tashkilotning xalqaro savdo statistikasi (Trade statistics for international business development)

** http://www.oica.net/ — International Organization of Motor Vehicle Manufacturers

*** “O‘zavtosanoat” AK ma’lumotlari

**** http://my.ima.uz/ — Intellektual mulk agentligining davlat xizmatlari bo‘yicha online tahliliy statistik ma’lumotlari

Mustaqil o‘zgaruvchi sifatida qabul qilingan TTXIlar sifatida avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning aynan avtomobil sektorlariga yo‘naltirilgan hajmining o‘zgarish indekslari qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida raqobat indeksi (RI) olingan bo‘lib, ushbu indeks OICA tomonidan avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning jahon eksportidagi ulushini o‘zgarish indekslari qabul qilingan. Shuningdek, ushbu indekslar, xar bir mamlakat bo‘yicha 2010-2021-yillar davomidagi avtomobillar sotish hajmini bazis yilga nisbatan o‘zgarishlari orqali ifodalanadi.

Yuqoridagi indikatorlar bo‘yicha O‘zbekiston avtomobil sanoatini TTXIlar hisobiga avtomobil sanoatini raqobatbardoshligini aniqlash bo‘yicha statistik ma’lumotlarni shakllantiramiz.

Bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida 2010-2021-yillarda TIF TN 8701-8703 bo‘yicha jahon eksportidagi ulushi (CP_1) hamda avtomobil ishlab chiqarish bo‘yicha jahon bozoridagi ulushi (CP2) o‘zgarishlari qabul qilish maqsadga muvofiq.

To‘planadigan ma’lumotlar bazasi, davriy va xususiyatiga ko‘ra tizimlashtirilgan bo‘lib, maqsadga muvofiqligi statistik asosnomalarga ega hisoblanadi. Avtomobil sanoatining texnologik tasnifi esa OYECD standarti va global texnologiya intensivligiga asoslanadi.

Tanlangan o‘zgaruvchilar bo‘yicha ma’lumotlar turlicha ifodalarga ega bo‘lganligi hamda balanslanmaganligi uchun tanlangan o‘zgaruvchilar bo‘yicha qabul qilingan qiymatlarni logarifmik ma’lumotlar asosida ifodalash talab etiladi. Bunday ma’lumotlarni ishlov berish Eveiws paketi(dasturi) yordamida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Buning uchun, birinchi navbatda o‘zgaruvchilarni natural logarifmga aylantirish talab etiladi. **EViews** paketi(dasturi) asosida olingan bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida tanlangan (CP1) eksportdagi ulushi bo‘yicha raqobatbardoshlikni oshishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning teskari ta’siri kuzatildi. Olingan model natijalaridan (2-jadval) ma’lum bo‘lmoqdaki tarmoqda amalga oshirilayotgan innovatsiyalar ham eksport imkoniyatlarini oshirishga imkon bermayapti. Aksincha, amalga oshirilayotgan innovatsiyalar avtomobil sanoatini raqobatbardoshligini oshirishga teskari ta’siri kuzatilmoqda.

Olingan birinchi funksiya natijalari koeffitsiyent miqdorini ifodalovchi R^2 determinatsiya koeffitsiyenti 0.76 ga teng bo‘ldi. Ushbu koeffitsiyent 0 va 1 oralig‘idagi qiymatlarni qabul qiladi va qanchalik 0 ga yaqin bo‘lsa, bog‘liqlik yo‘qolib boradi. Ushbu holatdan ma’lumki, tanlangan mustaqil o‘zgaruvchilar bog‘liq o‘zgaruvchi bilan yaroqli bog‘liqlikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

Topilgan modelni statistik ahamiyatliligini aniqlash uchun Fisherning F-mezonidan foydalaniladi. Omil dispersiya bilan qoldiq dispersiya orasidagi farq F-Fisher mezoni asosida aniqlanadi. Fxaq > Fkritik bo‘lsa, bu farq muhim deb topiladi. Fisherning 0,01 muhimlilik darajasi uchun Fxaq=7,2 Fkritik = 2,39 qiymatlarni qabul qildi. Fisher mezoniga asoslangan holda olinadigan funksiya normal taqsimotga asoslangan va ahamiyatli hisoblanadi.

LOG(CP1) = -9.858+ 5.660*LOG(HK) — 2.628*LOG(RD2) — 0.209*LOG(TTXI) (5)
R-squared=0.756224; Prob(F-statistic)=0.014986

2-jadval

Regressiyaning eng kichik kvadratlar usuli asosida (Least Squares) EViews paketi(dasturi) asosida olingan natijalar[1]

Dependent Variable: LOG(CP1)
Method: Least Squares
Date: 01/06/21 Time: 02:12
Sample: 2008 2021
Included observations: 11

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
C	-9.858583	6.203729	-1.589138	0.1561
LOG(HK)	5.660205	2.741214	2.064853	0.0778
LOG(RD2)	-2.628142	0.701419	-3.746895	0.0072
LOG(TTXI)	-0.209170	0.145498	-1.437618	0.1937

R-squared	0.756224	Mean dependent var	-3.354529
Adjusted R-squared	0.651749	S.D. dependent var	1.306022
S.E. of regression	0.770720	Akaike info criterion	2.592304
Sum squared resid	4.158066	Schwarz criterion	2.736994
Log likelihood	-10.25767	Hannan-Quinn criter.	2.501098
F-statistic	7.238308	Durbin-Watson stat	2.276172
Prob(F-statistic)	0.014986		

EViews paketi(dasturi) asosida olingan (3-jadval) bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida tanlangan (CP2) O‘zbekistonning jahon avtomobil ishlab chiqarishdagi ulushining o‘zgarishiga ham to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va amalga oshirilgan innovatsiyalarning teskari ta’siri kuzatilmoqda (5).

Olingan ikkinchi funksiya natijalari koeffitsiyent miqdorini ifodalovchi R^2 determinatsiya koeffitsiyenti 0.56 ga teng bo‘ldi. Ushbu koeffitsiyent 0 va 1 oralig‘idagi qiymatlarni qabul qiladi va qanchalik 0 ga yaqin bo‘lsa, bog‘liqlik yo‘qolib boradi. Ushbu holatdan ma’lumki, tanlangan mustaqil o‘zgaruvchilar bog‘liq o‘zgaruvchi bilan yuqori bog‘liqlikka ega emasligini tasdiqlaydi. Shunga muvofiq model bo‘yicha natijalar yuqori ishonchi emas deb qabul qilgan holda, Fisherning 0,10 muhimlilik darajasi uchun modelning statistik ahamiyatligini tekshiramiz. F_{xaq}=3,0 F_{kritik} = 2,39 qiymatlarni qabul qildi.

[1] Muallif tomonidan EViews paketi(dasturi) asosida olingan natijalar

LOG(CP2) = -5.654 + 2.089*LOG(HK) — 0.531*LOG(RD2) — 0.113*LOG(TTXI) (6)
R-squared=0.563250; Prob(F-statistic)=0.103991

3-jadval

Regressiyaning eng kichik kvadratlar usuli asosida (Least Squares) EViews paketi(dasturi) asosida olingan natijalar[1]

Dependent Variable: LOG(CP2)
Method: Least Squares
Date: 01/06/21 Time: 02:04
Sample: 2008 2021
Included observations: 11

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
C	-5.654195	2.215714	-2.551861	0.0380
LOG(HK)	2.089806	0.979048	2.134529	0.0702
LOG(RD2)	-0.531443	0.250518	-2.121381	0.0716
LOG(TTXI)	-0.113344	0.051966	-2.181119	0.0655

R-squared	0.563250	Mean dependent var	-1.632251
Adjusted R-squared	0.376071	S.D. dependent var	0.348490
S.E. of regression	0.275269	Akaike info criterion	0.533153
Sum squared resid	0.530412	Schwarz criterion	0.677842
Log likelihood	1.067658	Hannan-Quinn criter.	0.441947
F-statistic	3.009159	Durbin-Watson stat	2.684733
Prob(F-statistic)	0.103991		

Fisher mezoniga asoslangan holda olinadigan funksiya normal taqsimotga asoslangan va ahamiyatli hisoblanadi va olingan natijalar raqobatbardoshlikni nisbiy asoslash uchun qabul qilish mumkinligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Amalga oshirilgan tadqiqot O‘zbekistonning avtomobil sanoatiga TTXIlarni jalb etishga qaratilgan maqsadli strategiyalar tarmoq raqobatbardoshligini oshirishga deyarli ta’sir ko‘rsatmagan balki raqobatbardoshlik darajasini pasaytirib borganligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar va inson kapitali o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlik mavjuddir. Xorijiy investitsiyalarni jalb etilishi 2020-yilgacha bo‘lgan davrda asosan ish o‘rinlarini ko‘paytirishga qaratilganligi, innovatsion rivojlanish va xalqaro raqobatbardoshlikni ta’minlashga yetarlicha e’tibor qaratilmaganligini olib borilgan tadqiqot natijalari asosladi.

TTXIlarni jalb qilish strategiyasi keng qamrovli axborot va marketing dasturlariga ega bo‘lishni taqozo etadi, shuning uchun potensiali yuqori bo‘lgan xalqaro auditoriya tomonidan baholanadigan va foydalanadigan ma’lumotlar bazalarini shakllantirish talab etiladi.

TTXIlarni jalb qilish bo‘yicha strategiyani amalga oshirish uchta blokdan tashkil topadi. Strategik rejalashtirishning birinchi bloki xorijiy sarmoyalarni kiritilishini prognozlash va TTXIlarning muayyan donorlarini izlashga asoslangan

[1] Muallif tomonidan EViews paketi(dasturi) asosida olingan natijalar

xorijiy investitsiyalar uchun global imkoniyatlarni aniqlash va ulardan foydalanish tavsiya etiladi.

Avtomobil sanoatida TTXIlarni jalb qilish strategiyasini amalga oshirish jarayonida ko‘plab omillar hisobga olinishi lozim. Tarmoq investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishni baholashda investitsiya strategiyalarini ichki va tashqi vositalar bilan muvofiqlashganligi alohida ahamiyatga ega.

TTXIlarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etishga qaratilgan marketing yondashuvining asosiy g‘oyasi qulay investitsion muhit emas, balki investorlarni mavjud muhit doirasida faoliyat yuritishga undash va investorlarning bozor imkoniyatlarini kengaytirishga sharoitlar yaratib berish kabi qarashlarga ahamiyat qaratishdir.

Avtomobil sanoatiga TTXIlarni jalb qilish strategiyasining taklif etilgan modeli milliy va xalqaro mezonlarga mos bo‘lib, samarali xalqaro imij yaratish asosiy yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

O‘zbekistonning avtomobil sanoatiga TTXIlarni jalb etishga qaratilgan maqsadli strategiyalar tarmoq raqobatbardoshligini oshirishga deyarli ta’sir ko‘rsatmagan balki raqobatbardoshlik darajasini pasaytirib borganligini ko‘rsatmoqda. Xorijiy investitsiyalarni jalb etilishi 2020-yilgacha bo‘lgan davrda asosan ish o‘rinlarini ko‘paytirishga qaratilganligi, innovatsion rivojlanish va xalqaro raqobatbardoshlikni ta’minlashga yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

Jahon tajribasida barcha tegishli manfaatdor tomonlar ishtirok etgan integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirishda yangi transport vositalarida “CO2” chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan qonunchilik tendensiyasi mavjud bo‘lib, uning asosiy yo‘nalishlari “Avtotransport texnologiyasi — yangi avtomobil va yuk mashinalarining CO2 metodologiyasiga asoslangan holda chiqindilarini kamaytirish, muqobil yoqilg‘i, haydovchilarning xulq-atvori, soliqqa tortish tizimini takomillashtirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/-5841063

2. Markusen J. R. The Boundaries of Multinational Enterprises and the Theory of International Trade // The Journal of Economic Perspectives. 1995. T. 9, № 2. S. 169—189; azin A., Sadka E. Foreign Direct Investment: Analysis of Aggregate Flows / pod red. A. Razin, E. Sadka. Princeton University Press, 2006. 215 s.; World Investment Report 2014. Investing in the SDGs: An Action Plan / UNCTAD. 2014. S. 60-61.

3. О.Т. Аҳмедов. М.Ш. Қозақова. Мамлакатимиз иқтисодиётини ривожлантиришда инвестицияларнинг тутган ўрни http://www.iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/16_O_Ahmedov_M_Kozakova_0.pdf..

4. Пребиш Р. Периферийный капитализм: есть ли ему альтернатива: сокр. пер. с исп. Москва: ИЛА РАН, 1992. 337 с

5. Захаров В. К., Голикова Е. И. Иностранные инвестиции в экономике России // Экономический журнал. 2012. № 3. С. 21—27.

6. Vernengo M. Technology, Finance, and Dependency: Latin American Radical Political Economy in Retrospect // Review of Radical Political Economics. 2006. Т. 38, № 4. S. 551-565.

7. Акопова Е., Ефременко И. Неопарадигмальный подход к исследованию цикличности финансовой глобализации // Экономические науки. 2011. № 12. С. 400—405.;

8. Bhagwati J. Why Multinationals Help Reduce Poverty // The World Economy. 2007. Т. 30, № 2. S. 211—228.

9. Валиев Б. Миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишини таъминлашда тўғридан-тўғри хорижий инвестициялардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Т.: Ўз.Рес. Банк-молия академияси.2017 йил.16 бет..

10. Гаибназарова З. Инновацион инвестициялаштириш самарадорлигини оширишнинг назарий асослари. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. . –Т.: ТМИ. 2012 йил.6-бет

11. Раимжанова М. Ўзбекистонда эркин иқтисодий ҳудудларга инвестицияларни жалб қилишни фаоллаштириш. 08.00.07 – “Молия, пул муомаласи ва кредит” ихтисослигида Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореерати. –Т:. Ўз.Рес. Банк-молия академияси. 2012 йил. 5-бет.

12. Markusen, J., & Venables, A. (1999). Foreign direct investment as a catalyst for industrial development. European Economic Review, 43(2), 335–356;

13. Caves, R. (1996). Multinational enterprises and economic analysis, the 2nd edition. Cambridge, MA: Cambridge University Press.

14. Rodriguez-Clare, A. (1996). Multinationals, linkages, and economic development. American Economic Review, 86(4), 852–873.

15. Romer, P. (1990). Endogenous technological change. Journal of Political Economy, 98, 71–102;

16. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO) (2011). Industrial development report 2011: Industrial energy efficiency for sustainable wealth creation. Vienna: United Nations.;

17. Limao, N., & Venables, T. (2001). Infrastructure, geographical disadvantage, transport costs and trade. World Bank Economic Review, 15(3), 451–479.